
MUNOSABAT

Keyingi yillarda o'lkamizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yuksaltirishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Negaki kishilar iqtisodiy, maishiy masalalar bilan andarmon bo'lib, milliy o'zlik, madaniy meros, kitobxonlik madaniyatini unutishgacha borishdi. O'z tarixidan bexabarlik, faqat qorin g'ami bilan yashash tanazzulga olib boradi. Bilim va ma'rifatsiz qolgan to'da fojiga duchor bo'ladi. Biz "najot faqat bilimda, ma'rifatda" degan bobolar avlodimiz. Bundan bir asr ilgari yashagan jadid vatanparvarlari xalqimizni ma'naviy uyg'otishga kirishgan edilar. O'z mablag'idan maktab qurgan, maosh olmasa ham maslak yo'lida xolis bilim berib, ma'rifat tarqatganlar ulug' fidoyilar ko'p bo'lgan. Ular o'z g'oyalari yo'lida qurbon bo'ldilar. Xayriyatki shahid bobolarimizning nomlari oqlandi. Ular ko'targan g'oyalarni o'rganish imkoniyati tug'ildi. Xalqimizning ma'naviy jihatdan yuksalishi, jahon ayvonida o'z fikrini baralla aytishini hammamiz istaymiz. Bu borada Prezidentimiz olg'a surayotgan g'oyalar juda ibratli. U kishi tariximizni yaxshi bilganlari uchun madaniyat va ma'rifatni yuksaltirishga jon kuydiradilar. Milliy o'zlik, asriy qadriyatlarni o'rganish bilan birga jahon taraqqiyoti yutuqlaridan oqilona foydalanadigan uyg'oq shaxslar jamiyati, ijtimoiy davlatni shakllantirishga mahkam bel bog'laganlari bizni quvontiradi. Yangi O'zbekistonda ma'naviy yuksalish shiorini ko'tarib, butun jahonda madaniy meros jonkuyari sifatida tanildilar. Odamlar ijobiy o'zgarishlar, islohotlar samarasini ko'rib-bilib turishibdi. Biz ham Yurtboshimizning fikrlarini qo'llab-quvvatlab, xalqimiz ma'naviy hayotini boyitishga xizmat qilamiz.

Diloromxon Dodoboyeva
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Rishton tuman bo'linmasi rahbari

2023-12-25 13:39:26